

“MUQADDAS ITTIFOQ” KONGRESSLARI VA YANGI DUNYO (AAXEN, TROPPAU, LAYBAX VA Verona).

Axmakov Sherzod Mamurjonovich

Samarqand shahar 75-maktab tarix fani o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Yangi Olam koloniyalari aholining nochor qatlami chiqishlarini larzaga keltirdi. Negrlar xo‘jayinlaridan qochgan, qoloq joylarda palenke yoki kilombo istehkomlarini yaratib, u yerdan qo‘shni shahar va qishloqlarga hujum qilib turgan yoki plantatsiya qullari bilan birgalikda qo‘zg‘olonlar ko‘tarishgan. Hindular Yevropaliklarni haydash, yo‘qotilgan xududlar va mustaqillikni qaytarish harakatini qoldirishmadı. Qo‘zgolonchilar aniq dushmanlarni rangiga qarab aniqlashgan va bu kurashdan ikkala tomon ham ko‘p jabr ko‘rgan.

Key words: *Irqiyl zulm, kreollar, kolonial hokimiyat, liberalizm, metropoliya burjuaziyasi;*

Yevropada dehqonlar urushi davridagi kabi o‘tmishni ideallashtirish sinfiy va irqiyl zulm tizimiga qarshi ijtimoiy e’tirozning ommaviy harakati uchun namuna bo‘lgan. Aynan shu sababli kreollar armiyasi kolonial hokimiyatni qo‘llab-quvvatlashda ularni mag‘lub etgan. Kolonial tizimga o‘lim xavfi boshqa tomondan yopirilib kelgan. Ehtimol, dunyoda kolonizatorlarni yaxshi tomondan eslovchi birorta kolonial xalq bo‘lmasa kerak, xatto uning o‘zi ulardan kelib chiqqan bo‘lsa ham. Lotin amerikaliklarda kolonizatorlar haqidagi xotiralar ko‘pincha ulardan o‘g‘irlangan oltin, kumush, olmos, o‘n millionlab nobud bo‘lgan negrlar va hindular bilan, Yevropaliklarning ko‘plab boshqa jinoyatlari bilan bog‘liq. Kolonizatorlar va kolonializmning bunday baholanishi albatta asosli¹.

Yirik nemis olimi Aleksandr fon Gumbold Lotin Amerikasini 1799-1804-yillardagi sayohati davomida yaxshilab o‘rganib chiqib, qiziqarli kuzatishni olib bordi: «Yangi Ispaniya...qirol g‘aznasiga Britaniya Hindistoniga qaraganda ikki karra ko‘p daromad yetkazadi». Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, har bir meksikalik hinduga qaraganda 10 marta ko‘p qo‘shimcha mahsulot bergen. Agar koloniylar faqat tovar almashinuviga tortilgan deb taxmin qiladigan bo‘lsak, bunday yuqori hosildorlikni

¹ Альперович М. С., Слезкин Л. Ю., Образование независимых государств в Латинской Америке (1804-1903), М., 1966; с. 243

amerikalik aborigenlarda ishlab chiqarishning ibtidoiy jamoa va Osiyo» usullariga kiritish kerak bo‘lar edi.

Siyosiy tuzilish liberalizm g‘oyasini amalga oshirib bozor kuchining erkin o‘yiniga xalaqit qilmadi, balki muhofaza qildi. Bu maqsadga prezident respublikasi, hokimiyatlarning bo‘linishi, federalizm, «inson va fuqaro xuquqi», shaxsning uy-joy va mulkning daxlsizligi xizmat qildi. Mazkur qismda Lotin Amerikasi va AQSH konstitutsiyasining aniq nusxasi bo‘ldi. Ularning hammasi «xalqni» hokimiyatning yagona manbai kabi ko‘rsatgan. Lekin uning vakillarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylamagan: birinchi bosqichda faqat saylovchilar saylangan, keyin deputatlar va senatorlar saylangan.

Bunda qullar, xizmatkorlar, daydilar, yollanma ishchilar saylash xuquqidan mahrum qilingan. Hamma yerda yuqori mulk senzlari kiritilgan – saylovchilarni saylash uchun 600 pesodan 4 ming pesogacha mulkka ega bo‘lganlar deputatlarni, 10 ming peso senatorni saylash huquqini bergen. Bu bilan konstitutsiyada xalqning chegaralari va fuqaroning portreti aniq chizib ko‘rsatilgan. Bunday xalq yoki fuqarolik jamiyatni aholining 1%ni tashkil etgan².

Bunday dekretlar chop etilganidan keyin qullarning tug‘ilgan farzandlari erkin deb e’lon qilinib, voyaga yetgunga qadar xo‘jayinlari qo‘lida qolishga majbur edi. Shunday qilib, Lotin Amerikasida bozor iqtisodiyoti, fuqarolik jamiyatni va xuquqiy davlat yo‘nalishida jamiyatni o‘zgartirgan liberal o‘zgarishlar seriyasi sodir bo‘lgan. Mintaqalar sharoitida bu o‘zgarish aholining ekspropriatsiyasiga uchradi. Islohotlar xalqqa qarshi xarakterga ega edi. Konstitutsiyalar xalqni uning vakillarini saylashdan chetlashtirdi. Ular qonun kuchi bilan axolining istalgan majlisiga o‘zini «xalq» deb e’lon qilishni va jamoa iltimoslarini ko‘rsatishni man etdi. «Qurollangan odamlarning har qanday yig‘ilishi jamoat xavfsizligiga tajovuz kabi qaraldi va kuch ishlatib xaydaldi ... Qurolsiz odamlarning ham yig‘ilishlari tarqatildi ... avval og‘zaki buyruq yordamida, agar yordam bermasa keyin kuch ishlatildi»³.

Bunday islohotlarni amalga oshirish uchun kreol latifundlari va ularning lashkarlariga qulay sharoit, chet el yordami kerak edi. 1808–1814-yillarda Portugaliya va Ispaniya Napoleon tomonidan okkupatsiya qilinganidan keyin qulay payt keldi. AQSH va Angliyadan quroq – yarog‘ va valontyorlar ko‘rinishidagi

² Альперович М. С., Слезкин Л. Ю., Образование независимых государств в Латинской Америке (1804-1903), М., 1966; с. 247

³ Альперович М. С., Слезкин Л. Ю., Образование независимых государств в Латинской Америке (1804-1903), М., 1966; с. 249

yordam keldi. Amerikada inqilobli hukumat quyi qatlamdan o‘zlarini fransuzlarda asir bo‘lgan qirol Ferdinand VII ning «qonuniy huquqlari himoyachisi» deb e’lon qilib, asl maqsadni yashirishgan.

Inqilobchilar deyarli barcha joylarda quyi qatlamning shavqatsiz qarshiligidagi duch keldi. Shu sababli Lotin Amerikasining har bir mamlakatida milliy-ozodlik inqilobini ta’minalash nafaqat liberallarning intilishlari bilan, balki ularning o‘z xalqi bilan to‘qnashuvida aniqlangan.

Braziliyadagi 1822-yilgi inqilob liberal hisoblanadi. Bu mamlakatda XVIII asr davomida ishlab chiqarish kuchi shiddat bilan kutarildi, aholi soni 10 barobarga oshdi. 1808-yildan boshlab Braziliya gullab-yashnadi, napoleonchilarning Portugaliyaga bostirib kirishi natijasida qirol saroyi Rio-de-Janeyroga ko‘chib o‘tadi va uning ortidan savdo monopoliyasi, cheklashlar, reglamentatsiya va kolonial tizimning boshqa elementlari bor bo‘ldi. 1815-yili Braziliya koloniyadan Portugaliya qirolligining teng huquqli qismiga aylanib Yangi siyosiy mavqega ega bo‘ldi⁴.

Yevropada urushning tugashi va 1820-yilgi inqilob tufayli vaziyat tubdan o‘zgardi. Yevropaga avval qirol Joan VI ni qaytarib va uning o‘g‘li, Braziliya regenti – shahzoda Pedruni chaqirtirib, metropoliya burjuaziyasi kolonial tartibni restavratsiya qilishni namoyish etdi. Unga javoban braziliyalik pomeshiklar – shahzoda saroyini qurshab olib uni qolishga ko‘ndirdilar. Mahalliy lashkarlar va dengiz floti yordamida ular portugal garnizonlarini tezda yengishdi, Braziliya hukumatini yaratishdi, Pedruni mamlakat mustaqilligi haqidagi manifestni imzolashga majbur etishdi. 1822-yil 7 sentabrda Pedru Portugaliya bilan aloqalarni butunlay uzish qarorini tasdiqladi. Pedru boshchiligidagi konstitutsion monarxiya o‘rnatildi⁵.

Haqiqiy xalq inqiloblari San Domingo va Paragvayda sodir bo‘ldi. Gaiti orolining fransuz qismi – San Domingo xaqiqiy quzdorlik koloniyasi dunyoda eng yirik shakar yetishtiruvchi va Fransiya uchun ahamiyatli edi. Gaitidagi inqilob metropoliyadagi inqilob ta’siri ostida boshlandi va 1792-yilning kuzigacha burjuaziya harakterini saqladi. Mahalliy plantatorlar oq tanlilar yordamida «San Domingo konstitutsiyasi asoslarini» Sen Marka shahri majlisi orqali o‘tkazdi. Xujjat majlisga mamlakatning ichki tuzilishi masalalari bo‘yicha qonunlarni ishlab chiqarishni, savdo aktlarini ishlab chiqarish huquqini topshirdi va savdo erkinligini «vaqtinchalik» kiritdi. Oq

⁴ Альперович М. С., Освободительное движение конца XVIII — начала XIX вв. в Латинской Америке, М., 1966; с. 189

⁵ Альперович М. С., Слезкин Л. Ю., Образование независимых государств в Латинской Америке (1804-1903), М., 1966; с. 164

tanlilar kamchilik bo‘lsada nafakat qullarga, balki erkin «ranglilarga» fuqarolik xuquqini rad etdi, bundan mulatlar kolonial hokimiyatni qullab-quvvatladi⁶.

Ozodlikni qo‘lga kiritish uchun qullar 1802-yilgacha sobiq qul Tussen Luvertyur tomonidan boshqarilib turgan. Qushni San Domingo ispanlariga orolning fransuz qismini zabit etishga yordam bergan yoki aksincha fransuz kolonial hokimiyati tomonida ispanlarga qarshi kurashgan, oq tanlilar inqilobini barbod etishgan. 1798-yili negrlar nafaqat fransuz rejimini qulatgan, balki uni butun orolga tarqatgan. O‘z inqilobini yakunlagandan keyin metropoliya 1803-yil qulliqni tiklashga urindi. Ular fransuz ekspeditsiya korpusini mag‘lub etdi va Gaiti mustaqilligini e’lon qildi.

Kolonializmning buzilishi va mustaqil davlatning yaratilishi bilan sobiq qullar burjuaziyasi maqsadlarini xayotga tadbiq etdi guyo. Uning ketidan oq tanli aholi oilalari bilan 1804-yilgi «milliy qasos» kampaniyasida butunlay kesilgan, ulardan ozod qilingan yerlarda esa davlat plantatsiya xo‘jaligi paydo bo‘ldi. Amaldorlar boshchiligidagi u yerda kechagi qullar mehnat qilgan, ularning ahvoli fransuzlar davridagiga qaraganda ancha yaxshi edi. Daromadning uchdan bir qismi davlatga, yana bir qismi boshqaruvchilarga, qolgani esa ishchilar o‘rtasida teng bo‘lingan.

Ijtimoiy – iqtisodiy tomondan mamlakat uzoqqa ketdi va dastlabki kapital to‘planish jarayonini boshidan kechirdi. Barcha sinalgan variantlar prezidentlar, xarbiy diktatorlar, qirollar va imperatorlarda bu jarayon ommaning qarshiligidagi uchradi va qo‘zgolonlar, isyonlar, to‘ntarishlar, mamlakatning provinsiyalarga bo‘linishi, to‘xtovsiz fuqorolar urushlariga sabab bo‘ldi⁷.

Paragvay inqilobi La Plata provinsiyasida sodir bo‘ldi. Etnik munosabatdagi Paragvayning dehqonlar ommasi tabiatan tenglik va xalq suverenitetiga tortgan. U inqilobiy Buenos Ayres liberalizmining asl mohiyatini xatosiz ilg‘ab oldi, u bilan bog‘lik zaif paragvaylik pomeshchiklar va savdogarlarda o‘z tashqi dushmanining ichki ayg‘oqchilarini ko‘rdi. 1810-yili paragvayliklar Buenos Ayresdan ozodlik ekspeditsiyasini ishg‘ol qildi, bir yildan keyin esa Ispaniya rejimini ham yo‘q qildi.⁸

1814–1840-yillar Paragvayda dehqonchilik va xunarmandchilik sektori o‘sdi, nochor xo‘jaliklar muntazam o‘rtalari darajagacha ko‘tarildi. Ispanlardan tortib olingan

⁶ Альперович М. С., Освободительное движение конца XVIII — начала XIX вв. в Латинской Америке, М., 1966; с. 267

⁷ Альперович М. С. Война за независимость в Латинской Америке (1810—1826). М., 1964. с. 258

⁸ Альперович М. С., Освободительное движение конца XVIII — начала XIX вв. в Латинской Америке, М., 1966; с. 328

mulkchilik hisobidan davlat xo‘jaliklari va davlat manufakturalari yuzaga keldi, u yerda yollanma ishchilardan tashqari negr-qullar va hukm etilganlar mehnati qo‘llanilgan. Ishlab chiqarishning hammasi davlat tomonidan qattiq nazorat qilingan. Hosildorlik va mehnat sifati repressiyalar bilan «kuchaytirilgan»⁹.

Xususiy savdo shahar bozori darajasigacha ko‘tarilmagan, taqsimlash va aylanma zvenolari davlat tasarrufiga o‘tgan. Davlat o‘z peshtoqlarini yaratdi, kambag‘allarga qoramol, kiyim-kechak, oziq-ovqat tarqatgan.

Xalq hayotining teng moddiy sharoitlari ma’naviy tenglik bilan to‘ldirilgan. Mamlakatda majburiy bepul boshlangich ta’lim joriy etildi, bu davrda Paragvayda o‘qish va yozishni bilmaydigan birorta erkakni topish qiyin edi. Davlat hammaga ko‘p narsa berishga qodir emas edi, ba’zilarning yuqori ma’lumoti tenglikni buzgan. 1822-yili o‘rtta va oliy ta’lim to‘liq o‘rnatildi.

Bu tenglik ustidan eng kuchli byurokratik davlat ustunlik qilgan. Usha davrda Paragvayda fuqorolar urushi va jinoyatchilikning yo‘qligini chet elliklar ta’kidlashgan. Xalq ham hayotidan mamnun bo‘lgan, dahosidan qurqgan, lekin hurmat qilgan, yaratilgan tuzumni himoya qilish uchun buyuk qurbanliklarga tayyor bo‘lgan. Xalq talablarining u yoki bu muhrlariga ega inqilob Kuba, Puerto-Rikodan tashqari boshqa Ispan Amerikasi uchun xosdir. Metropolianing okkupatsiyasi va qirol Ferdinandning asir etilishi kreol inqilobchilariga yordam bergen. Ular «sevimli monarxining qonuniy huquqlarini himoya qilish uchun» o‘z hukumati – xuntalarni tashkil etishdi, kolonial rejimni tugatishdi.¹⁰

1815-yilga kelib faqat Buenos Ayresda kreol inqilobi mayjud edi, lekin ular ham cho‘pon gauchalar bilan og‘ir jang olib borgan. Meksikada aksincha, kreol fitnasi rahbarlarining hokimiyat tomonidan hibsga olinishi inqilobchilarni tezda xalq qo‘zg‘olonini ko‘tarishga undadi. Mehnatkash xalq Migel Idalgoning chaqiruviga quloq tutdi. Kreollar va ispanlarga qarshi urush e’lon qildi.¹¹

Xalq harakatlari mustaqillik uchun urushning ikkinchi g‘olibona bosqichining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi (1816-1826). Ular ilk bor kreol burjuaziyasini ijtimoiy masalalar bilan jiddiy shug‘ullanishga majbur eta oldi.

⁹ Альперович М. С., Слезкин Л. Ю., Образование независимых государств в Латинской Америке (1804-1903), М., 1966; с. 189

¹⁰ Альперович М. С., Слезкин Л. Ю., Образование независимых государств в Латинской Америке (1804-1903), М., 1966; с. 198

¹¹ Альперович М. С., Освободительное движение конца XVIII — начала XIX вв. в Латинской Америке, М., 1966; с.241

Mustamlakalarda mazlum xalqlarning kurashi to‘xtovsiz davom etardi. Negrlar o‘z xo‘jayinlaridan qochib ketib, o‘tish qiyin bo‘lgan hududlarda aholi maskanlari tashkil etib, qo‘sni plantatsiyalarga, shaharlarga hujum uyuştirar edilar yoki atrofdagi hududlarda qullar bilan birgalikda qo‘zg‘olon ko‘tarardilar. Hindular mustamlakachilarni quvib yuborish va o‘z erkinliklarini tiklash yo‘lidagi harakatlarini to‘xtatmas edilar.

Qo‘zg‘olonchilar oq tanlilarni o‘zlarining asosiy dushmani deb hisoblardilar, har ikki tomonidan ham ko‘plab odamlar qurbon bo‘lardi.

Shu bilan birga Yevropadan ko‘chib kelgan oq tanli aholining tarkibi ham bir xil emas edi. Ularning katta qismi qashshoqlikda yashardi. Bir qismi esa katta-katta boyliklarga ega edi. Mustamlakalarda tovar ishlab chiqarishning ko‘payib borishi bilan mahalliy tadbirkorlar qatlami ham kuchayib bordi. Ularning ajdodlari Yevropalik bo‘lganiga qaramay, bir-ikki avlod o‘tgach ular kreollarga aylanib, Yevropadagi qarindoshlaridan begonalashib, o‘zlarining mahalliy manfaatlariga ega bo‘lib qolgan edilar. XIX asr boshiga kelib kreollar qo‘lida ko‘plab savdo uylari, konlarning deyarli yarmi, deyarli barcha manufaktura va yirik xususiy yer mulklari to‘plangan edi. Endilikda ular tobora ko‘proq mustamlakachilar tomonidan o‘rnatilgan cheklashlarni bekor qilinishini va erkin savdo o‘rnatilishini talab qilib chiqmoqda edilar¹².

XVIII asrning 70-yillarida Yangi Granadada mustamlakachilarning cheklashlariga qarshi qaratilgan «kommuneros» («yumumiyl ish himoyachilari») harakati paydo bo‘lib, Janubiy Amerikaning katta qismiga yoyildi. Unda asosan shaharliklar ishtirok etib, o‘z o‘zini boshqarish huquqi berilishini va soliqlarni kamaytirilishini talab qilib chiqdilar. Ispanlar bu harakatni bostira oldilar. Mustamlakachilarga qarshi qaratilgan 3 kuch – hindular, negr-qullar va kreollar uyushmasdan, bir-birlarini qo‘llab-quvvatlamasdan harakat qilardilar, shuning uchun ham ispanlar ularning chiqishlarini osonlik bilan bostirardilar.

XVIII asr oxiriga kelib, mustamlakachilar bilan mahalliy aholi o‘rtasidagi ziddiyatlar yanada keskinlashdi. Kreollar ispanlarning tashqi savdodagi monopoliyasining bekor qilinishini yanada qat’iyroq talab qilib chiqa boshladilar. Shimoliy Amerikadagi ingliz mustamlakalarining mustaqillikka erishganidan va 1789-yildagi fransuz

¹² Альперович М. С., Освободительное движение конца XVIII — начала XIX вв. в Латинской Америке, М., 1966; с. 261

inqilobining g‘alabasidan ruhlanib ketgan mustamlakalardagi ilg‘or fikrli kishilar ispanlar hukmronligiga tobora ko‘proq qarshi chiqa boshladilar.¹³

Venesuelalik kreol Fransisko de Miranda (1756-1816) mustamlakalar mustaqilligini talab qilib chiqqan dastlabki vatanparvarlardan biri edi. Ispan armiyasining podpolkovnigi, Kuba gubernatorining adyutanti bo‘lgan Miranda kreollarning radikal doiralari bilan aloqa o‘rnatdi va Ispaniya hokimiyati taqibidan Shimoliy Amerikaga qochib ketishga majbur bo‘ldi. U AQShda Vashington va boshqa siyosiy rahbarlar bilan uchrashdi, keyinchalik Ispaniya bilan raqobatda bo‘lgan buyuk davlatlardan yordam olish maqsadida Yevropaga bordi. U 1786-yilda Rossiyaga keldi. ¹⁴

Rus hukumati tomonidan Mirandaga berilgan diplomatik pasport va katta pul mablag‘i uning xavfsizligini ta’minlashga va keng faoliyat yuritishga imkon berdi. U Londonga borib, ingliz hukumatidan yordam olishga harakat qildi, lekin bu niyati amalga oshmagach, 1792-yilda Fransiyaga borib, inqilobchilar armiyasida general lavozimida janglarda ishtirok etdi.

1789-yildagi fransuz inqilobi Gaiti orolidagi San-Domingo koloniyasiga ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Bu yerda bir necha ming oq tanli plantatsiya egalari yuz minglab negr-qullarni ishlatar edilar. 1792-yilda orolda negr-qullar va ozod negrlarning qo‘zg‘oloni boshlandi. Qo‘zg‘olonchilar fransuz ma’muriyatini qulchilikni bekor qilishga majbur qildilar. Plantatsiya egalari Yamaykadan inglizlarni yordamga chaqirdilar, lekin sobiq qul Tussen (1743-1803) boshchiligidagi Gaiti armiyasi inglizlarni mag‘lubiyatga uchratdi va ularni oroldan chiqib ketishga majbur qildi. Orolga kelgan 15 ming kishilik ingliz qo‘shinidan faqat bir mingi omon qoldi. Ingliz ekspeditsiyasi qo‘mondoni Meitlend Tussenga asir tushdi va Gaiti mustaqilligini tan olib, u bilan bitim tuzdi. Tussen Ispaniyaga tegishli bo‘lgan Gaitining sharqiy qismini ham ozod qildi¹⁵.

Tussen o‘z nomiga fransuzcha «Luvertyur» («ochmoq») so‘zini qo‘shib olgan, bu bilan u o‘z xalqining mustaqilligi sari yo‘l ochishni nazarda tutgan, haqiqatan ham u Gaiti mustaqillining «otasi» hisoblanadi. 1801-yilda orolning deyarli oliy

¹³ Альперович М. С. Война за независимость в Латинской Америке (1810—1826). М., 1964. с. 191

¹⁴ Слезкин Л. Ю., Россия и война за независимость в Испанской Америке, М., 1964. с. 147

¹⁵ Альперович М. С., Освободительное движение конца XVIII — начала XIX вв. в Латинской Америке, М., 1966; с. 59

hukmdoriga aylangan Tussen-Luvertyur demokratik konstitutsiyani e’lon qildi, Fransiyaning mamlakat ustidan hukmronligi faqat nomigagina saqlanib qolgan edi¹⁶. Napoleon hokimiyat tepasiga kelgach, Fransiya Gaitidagi sobiq mustamlakasi ustidan yana o‘z hukmronligini o‘rnatishga intilib, u erga bir necha o‘n ming kishidan iborat ekspeditsion korpus yubordi. Gaiti xalqi bosqinchilarga qarshi qattiq kurash olib bordi. Fransuzlar qo‘zg‘olonchilarga ozodlik berish, armiya va hukumatda egallagan barcha lavozimlarini saqlab qolishga va’da qilib, sulh tuzishni taklif etdilar. Tussen-Luvertyur bu shartlarni qabul qildi. Lekin fransuzlar xoinlik qilib uni ushlab oldilar va Fransiyaga yuborib, turmaga tashladilar, u bu yerda 1803-yilda halok bo‘ldi. Gaitidagi inqilob g‘alabasi Amerikadagi ispan va portugal mustamlakalarida milliy-ozodlik harakatining yanada yuksalishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Bu inqilob Lotin Amerikasidagi mustamlakachilikga qarshi birinchi inqilob bo‘lib, u qulchilikni yo‘q qildi va respublika e’lon qildi. Bu birinchi marta g‘alaba bilan yakunlangan qullar qo‘zg‘oloni edi¹⁷.

Napoleon urushlari va Ispaniyaning fransuzlar tomonidan okkupatsiya qilinishi natijasida mustamlakalarning metropoliya bilan bo‘lgan savdosi deyarli to‘xtab qoldi. Bu esa mustamlaka tovarlarining inglizlar va Ispaniyaning boshqa raqiblari bilan bo‘ladigan kontrabanda savdosining kengayishiga yordam berdi. Buenos-Ayres, Montevideo, Karakas, Verakrus, Gavanada katta savdo markazlari tashkil topib, ular orqali Yevropa bozorlariga mo‘yna, kakao, kofe, qand, xinin, qimmatbaho metallar va toshlar chiqarilardi. Bu yerlarda mustamlakalarni Ispaniyadan ajralib chiqishini talab qiluvchi savdo burjuaziysi qatlami tashkil topdi. Ichki bozor ham kengayib bordi. Ispaniya bir qancha cheklashlarni bekor qilib, mustamlakalar o‘rtasida savdo-sotiqqa ruxsat qilgan bo‘lsa ham yaqinlashib kelayotgan bo‘ronni to‘xtatib qolish mumkin emas edi.

Fransiya va Ispaniya bilan urush holatida bo‘lgan Angliya 1806-yilda ispan mustamlakalarini bosib olish maqsadida Buenos-Ayresga harbiy ekspeditsiya yubordi. Miranda ham Londondan AQShga borib, xaloskorlik ekspeditsiyasini tashkil etib, Venesuelaga kirib bordi¹⁸.

¹⁶ Альперович М. С. Война за независимость в Латинской Америке (1810—1826). М., 1964. с. 321

¹⁷ Альперович М. С., Освободительное движение конца XVIII — начала XIX вв. в Латинской Америке, М., 1966; с. 265

¹⁸ Альперович М. С. Война за независимость в Латинской Америке (1810—1826). М., 1964. с. 258

Inglizlar La-Platada dastlabki davrda ancha muvaffaqiyatlarga erishdi va Buenos-Ayresni egalladi. Lekin kreollar rahbarligidagi shaharliklar qo‘zg‘oloni inglizlarni taslim bo‘lishga majbur qildi. Inglizlarning o‘n ming kishidan iborat yangi qo‘shini ham qo‘zg‘olonchilardan mag‘lubiyatga uchradi va inglizlar La-Platadan chiqib ketishga majbur bo‘ldilar.

Bularning hammasi vatanparvarlik kayfiyatidagi kreollarni ruhlantirib yubordi va ular qo‘zg‘olon ko‘tarish uchun qulay payt kuta boshladilar¹⁹.

Napoleon Ispaniyani bosib olgach, ana shunday imkoniyat yuzaga keldi. Karakasda (Venesuela) va boshqa shaharlarda kreollar fransuzlar asirligida yotgan ispan qiroli Ferdinand VII ning huquqlarini himoya qilish bahonasi ostida vatanparvarlik xuntalarini tuzib, ispan hokimiyatini ag‘darib tashladilar. Natijada bir qator joylarda hokimiyat tinch yo‘l bilan vatanparvar xuntalar qo‘liga o‘tdi. Lekin xuntalar o‘z faoliyatlarida yetarli darajada qat’iylik ko‘rsata olmadilar. Natijada ispanlar Buenos-Ayresdan tashqari barcha joylarda o‘z hokimiyatlarini qayta tikladilar. Buenos-Ayresda vatanparvarlar mohir sarkarda general Xose San-Martin boshchiligidagi ko‘ngillilar armiyasini tuzib, jazo ekspeditsiyasi qo‘shinini to‘xtatib qoldilar, keyinchalik hujumga o‘tib, ispanlarni Chilida tor-mor etdilar va ularni Peruda ta’qib qila boshladilar. Vatanparvarlar Uruguay va Paragvayda ham mustamlakachilar hokimiyatini tugatdilar.

Yangi Granada (hozirgi Kolumbiya) va Venesuelada ispanlarga qarshi kurash goh u tomonning, goh bu tomonning ustunligi bilan bordi. Ispaniya bu erga Puerto-Riko va Kubadan qo‘shin tashlab, Karakasni egalladi. Vataniga qaytib kelgan general Miranda asir olinib, Ispaniyaga yuborilib turmaga tashlandi va u 1816-yilda turmada halok bo‘ldi. Venesuelalik yosh aristokrat Simon Bolivar (1783-1830) vatanparvarlarga rahbarlik qildi²⁰.

Bolivar boshchiligidagi ko‘ngillilar armiyasi And tog‘laridan oshib o‘tib Yangi Granadaga kirib bordi va ispanlarga qarshi olib borilgan bir necha janglardan keyin bu hududni ozod etdi. Tez orada Bolivarning armiyasi Venesuelaga qaytib keldi va ko‘pgina og‘ir janglardan keyin Venesuelani ham ozod qildi. Yangi Granada va Venesuela Buyuk Kolumbiya nomi bilan bitta respublikaga birlashtirildi, Bolivar uning prezidenti qilib, Yangi Granadalik vatanparvar,

¹⁹ Симон Боливар: история и современность. - М., 1985. с. 14

²⁰ Альперович М. С. Война за независимость в Латинской Америке (1810—1826). М., 1964. с. 325

mohir davlat va harbiy arbob Fransisko de Paula Santander vitse-prezident qilib saylandi²¹.

Meksikadagi voqealar boshqacha tusda rivojlanib bordi. Bu yerda yirik yer mulklarga ega bo‘lgan kreollarning yuqori qatlami ispanlarni qo‘llab-quvvatlardi. 1810-yilda ruhoniy Idalgo boshchiligidagi hindular qo‘zg‘oloni boshlandi. Idalgo qirol monopoliyasini, jon solig‘ini, qulchilikni bekor qilinganligini e’lon qildi, yerlarni hindular qabilalariga qaytarish to‘g‘risida farmon chiqardi. Uning chaqirig‘iga javoban 80 mingga yaqin hindular qo‘zg‘olonda qatnashdilar, lekin yomon qurollanganliklari va uyushmaganliklari sababli mag‘lubiyatga uchradilar. Idalgo asir olinib, otib tashlandi.

Uning ishini Morelos davom ettirdi. Uning tashabbusi bilan chaqirilgan kongress 1813-yil 6 noyabrda Meksikani mustaqil deb e’lon qildi. 2-yildan keyin ispanlar Morelosni ushlab olib, qatl qildilar. Morelos vafotidan keyin uzoq cho‘zilgan partizanlar urushi boshlanib ketdi. Ispaniyadagi liberal inqilob g‘alabasidan qo‘rqib qolgan boy kreollar va cherkov ahli 1821-yilda Meksikani Ispaniyadan ajralib chiqqanini e’lon qildilar.²²

Amerikadagi ispan mustamlakalarida mustaqillik uchun olib borilgan urush vatanparvar kuchlarning g‘alabasi bilan yakunlandi. Braziliyadagi inqilob juda tezlik bilan sodir bo‘ldiki, negrlar qo‘zg‘olon ko‘tarishga va inqilobning borishiga ta’sir ko‘rsata olmadilar. Natijada Braziliya aholisining 1/3 qismi yana 60-yildan ko‘proq qullikda, jamiyat esa quldarlik munosabatlari girdobida qolib ketdi²³.

Ispanlar zulmidan ozod bo‘lishdan iborat asosiy vazifa bajarilgan bo‘lsa ham tub ijtimoiy o‘zgartishlar amalga oshirilmadi: ko‘pgina respublikalarda qulchilik faqat XIX asrning 50-60-yillarida bekor qilindi. Dehqonlarga yer berilmadi, xo‘jayinlari o‘zgargani holda latifundiyalar saqlab qolindi. Hindular

²¹ Глинкин А. Н. Дипломатия Симона Боливара/Серия: Из истории ди-пломатии). - М., Издательство: Международные отношения, 1991. с. 25

²² Симон Боливар: история и современность. - М., 1985. с. 89

²³ Альперович М. С. Война за независимость в Латинской Америке (1810—1826). М., 1964. с. 256

avvalgidek asoratga solindi, ba’zi respublikalarda esa (Argentina) ular qirib tashlandi, yerlari oq tanli mustamlakachilar tomonidan egallab olindi²⁴.

Lotin Amerikasida mustamlakachilik tizimining inqirozga uchrashi natijasida bir qator mustaqil davlatlar tashkil topdi. Ular jumlasiga Gaiti (1804), Paragvay (1811), Argentina (1816), Chili (1818), Buyuk Kolumbiya (1819), Peru (1821), Meksika (1821), Markaziy Amerika Respublikalari Federatsiyasi (1821), Boliviya (sobiq Tog‘li Peru Simon Bolivar sharafiga shunday nomlandi 1825), Urugvay (1830). Kuba va Puerto-Riko XIX asr oxirigacha Ispaniya mustamlakasi bo‘lib qolaverdi.²⁵

Inqilob rahbarlari Shimoliy Amerikadagi ingliz mustamlakalarini birlashtirib, yagona davlat (AQSH) tashkil etilganidan namuna olib, respublikalarni birlashtirishga harakat qildilar. Lekin bu harakatlar muvaffaqiyatga erishmadı. Jumladan 1823-yilda tashkil topgan Markaziy Amerika Respublikalari Federatsiyasi keyinchalik Kosta-Rika (1838), Nikaragua (1838), Gonduras (1838), Gvatemala (1839), Salvador (1841) davlatlariga ajralib ketdi. 1819-yilda tashkil topgan Buyuk Kolumbiya ham keyinchalik (1830) Venesuela, Kolumbiya va Ekvadorga ajraldi. 1844-yilda Gaitidan Dominikan Respublikasi ajralib chiqdi. Ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyotining pastligi, feodalizm qoldiqlarining saqlanib qolganligi, sobiq mustamlakalar o‘rtasida mustahkam iqtisodiy aloqalarning yo‘qligi bu tarqoqlikning asosini tashkil etardi²⁶.

Amerikadagi ispan mustamlakalarida mustaqillik uchun olib borilgan urush 15-yilga cho‘zildi. Mustamlakachilar tomonidan shafqatsizlik bilan olib borilgan urush natijasida Venesuela aholisi 316 ming kishiga (45 %) qisqardi. Yangi Granadada 172 ming, Ekvadorda 108 ming, Meksikada 200 ming kishiga qisqardi. Ko‘plab moddiy boyliklar yo‘q qilindi.

Yosh respublikalar hukumatlari vayron qilingan xo‘jalikni tiklash va iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun chet ellik tadbirkorlarga konsessiyalar berishga, chet ellardan kreditlar olishga va buyuk davlatlarga yon berishlarga

²⁴ Альперович М. С Испанская Америка в борьбе за независимость. М., 1971. с. 269

²⁵ Глинкин А. Н. Дипломатия Симона Боливара/Серия: Из истории ди-дипломатии). - М., Издательство: Международные отношения, 1991. с. 231

²⁶ Глинкин А. Н. Дипломатия Симона Боливара/Серия: Из истории ди-дипломатии). - М., Издательство: Международные отношения, 1991. с. 238

majbur bo‘ldilar. Bu esa AQSH, Angliya va Fransiyaning asta-sekin Lotin Amerikasi mamlakatlarining eng muhim pozitsiyalarini egallab, bu mamlakatlar taraqqiyotiga g‘ov bo‘lishiga olib keldi.

Yangi mamlakatlar siyosiy hayotida 2 asosiy oqim – liberallar va konservatorlar mavjud edi. Liberallar o‘z atrofiga yosh savdo va sanoat burjuaziyasi, liberal pomeshchiklarni birlashtirgan edi. Konservatorlar esa ko‘proq darajada pomeshchik-feedallarning, ruhoniylarning, sobiq mustamlakachilarning manfaatlarini ifodalardilar.

Bu guruqlar har doim ham izchil siyosat olib boravermasdilar. Ular vaqt-i-vaqt bilan hokimiyatni egallah yoki uni qo‘lda saqlab qolish uchun o‘z siyosiy dasturlarini o‘zgartirardilar. Har ikkala guruh ham hokimiyat uchun kurashda tez-tez qurol kuchidan foydalanishar, diktatorlik rejimlarini o‘rnatishar, armiyadan siyosiy maqsadlarda foydalanardilar.²⁷

1857-yilda kelib chiqishi hindulardan bo‘lgan Benito Xuares Meksika prezidenti bo‘ldi. Shu yili yangi konstitutsiya qabul qilinib, «Islohotlar to‘g‘risida qonunlar» qabul qilindi, bu qonunlar o‘zida burjua inqilobi dasturini aks ettirardi. Mamlakatdagi reaksiya kuchlari hukumatga qarshi birlashdi. Mamlakatda fuqarolar urushi boshlanib ketdi. Unda Xuares tarafдорлари qo‘li baland kelgach, bu ishga Ispaniya, Angliya va Fransiya aralashdi.²⁸

1838-1840-yillarda fransuzlar harbiy floti Buenos-Ayresni qamal qildi, 1845-1850-yillarda esa Argentina poytaxti ingliz-fransuz floti tomonidan qamal qilindi. 1864-yilda Ispaniya Peruga bostirib kirishga harakat qildi. Ispanyaning aggressiv harakatlariga Peru, Chili, Ekvador va Boliviya birgalikda qarshi chiqib, 1866-yilda Ispaniyani o‘z rejalaridan voz kechishga majbur qildilar. Ispanyaning Dominikan Respublikasini bosib olish uchun qilgan harakati ham natijasiz tugadi²⁹.

Paragvay XIX asrning 1-yarmida dastlab Xose Gaspar Rodriges Fransia, keyin Karlos Antonio Lopes rahbarligida qoloq ispan mustamlakasidan o‘z milliy mustaqilligini himoya qilayotgan ilg‘or respublikaga aylandi. Angliya Paragvaydagi progressiv rejimni ag‘darishni maqsad qilib qo‘ydi. Uning

²⁷ Альперович М. С Испанская Америка в борьбе за независимость. М., 1971. с. 187

²⁸ Линч Дж. Революции в Испанской Америке. 1808—1826. М., 1979. с. 321

²⁹ Альперович М. С Испанская Америка в борьбе за независимость. М., 1971. с. 325

qo'llab-quvvatlashi bilan Braziliya, Argentina va Urugvaydan iborat ittifoq tuzilib, u 1864-yilda Paragvayga urush e'lon qildi. Bu urush 5-yil davom qildi. Paragvay xalqi o'z mustaqilligini qahramonona himoya qilgan bo'lsa ham Angliya qo'llab-quvvatlab turgan 3 davlatdan iborat ittifoqqa qarshi tura olmadi. Urush Paragvayning mag'lubiyati bilan yakunlandi. Mamlakatdagi erkak aholining 90 % ga yaqini urushda halok bo'ldi. G'olib davlatlar Paragvaydan 55 ming kvadrat mil hududni tortib oldilar, mamlakat katta miqdorda tovon to'lashga majbur bo'ldi.³⁰

Biroq Panama kongressi birlashtiruvchi kuchlarning oliy va oxirgi nuqtasi bo'ldi. Shartnomani imzolagan davlatlardan faqat Kolumbiya uni ratifikatsiya qildi. Parchalanish jarayoni xavf soluvchi xarakterga ega edi. 1830-yili Kolumbiyaga ta'sir etdi, uning o'rnila Venesuela, Ekvador va Yangi Granada paydo bo'ldi. 1823-yili Meksikadan ajralib chiqqan Markaziy Amerika o'z navbatida 1838-1841-yillarda Gvatemala, Gonduras, Kosta Rika, Nikaragua va Salvadorga bo'lindi. 1844-yili Gaitida sobiq Ispan koloniyasi Dominikan Respublikasiga ajraldi. Shunday qilib, Peru, Chili, Braziliya va Gaitini hisobga olgan holda 18 ta mustaqil davlat tashkil topdi. Tarqalish to'xtovsiz ichki urushlar vaziyatida sodir bo'ldi. Natijada gullab-yashnash o'rnila erishilgan ozodlik qonli urushlarga aylandi³¹.

Shunday qilib, kelajak uchun kurashda liberallar inqilobiy sabrsizlik bilan "varvarlar"ni tor-mor qilishgan, xalqqa qarshi va millatga qarshi kuchga aylangan.

Birinchi inqilobchi daholardan biri Simon Bolivar edi. U 1828-yilgacha liberal reformator bo'lib qolgan. Yevropaliklarning ommaviy ko'chib o'tishi sodir bo'lmasligini, sivilizatsiyani tayyor ko'rinishda ko'chirib bo'lmasligini bilib, Bolivar xorijiy kolonial kompaniyalardan ko'chmanchilar uchun mo'ljallangan 6,3 mln ga yerni tortib oladi, uni davlat qarzlarini to'lash uchun sotadi. Kolumbiya konservatorlari aynan Bolivarni o'z partiyasining otasi deb bezizga atashmaydi³². Shunday qilib, Lotin Amerikasi konservatorlarining xizmati shundan iborat ediki, ular shoshilinch liberal islohotlarning isyonchi harakatlarini to'xtata oldi. Yashash tarzini tiklab ular ko'plab islohotlarni davom ettirdi, biroq ehtiyyotkorlik bilan. Yosh

³⁰ Альперович М. С Испанская Америка в борьбе за независимость. М., 1971. с. 328

³¹ Альперович М. С., Слезкин Л. Ю., Образование независимых государств в Латинской Америке (1804-1903), М., 1966; с. 221

³² Альперович М. С., Слезкин Л. Ю., Образование независимых государств в Латинской Америке (1804-1903), М., 1966; с. 266

davlatlarning tarqalishiga barham berdi, ularning mustaqilligini mustahkamladi, asosiysi hududlarining yaxlitligini saqlab qoldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Дегоев В.В. Внешняя политика России и международная система 1700-1918 гг. М., 2004.
2. Дегоев В.В. «Долгий мир» в Европе: союз монархов против революций. 2003.
3. Иванян Э.А. Энциклопедия российско-Американских отношений. XVIII-XX века. М.: Международные отношения, 2001.
4. История США. В 4 т. Под ред. Г.Н. Севастьянова. М., 1983. Т.1.
5. История дипломатии / Под ред. В.П. Потёмкина. М.:1940. Т. I.
6. Киссинджер Г. Дипломатия / Пер. с англ. М., 1997.
7. Колосова Н. В. Русско-шведские отношения после создания Венской системы (1815-1816) /Н. В. Колосова // Вестник Моск. Ун-та. Сер 8, Мстория. – 1998. - №3.
8. Линч Дж. Революции в Испанской Америке. 1808—1826. М., 1979. с. 321
9. Литтлвуд Йен. История Франции от древнейших времен до наших дней. М.,2004
10. Молок А. И. Венский конгресс и Священный Союз. Франция в период реставрации бурбонов (1815-1830 гг.) Стенограмма лекций, прочитанных в Высшей партийной школе при ЦК ВКП(б). М.,1949.